

## **DISLALIYA: SABABLARI, TASHXIS VA TUZATISH METODIKASI**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Maxsus pedagogika (Logopediya) yo'nalishi,*

**Ibrohimova Gulruh Mansurbek qizi**

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada dislaliya – ya'ni nutq tovushlarining buzilishi holati, uning asosiy kelib chiqish sabablari, tashxislash mezonlari va tuzatish yo'llari ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtayi nazardan yoritilgan. Maqolada dislaliyaning turlari, pedagogik-psixologik omillari, logopedik ish tashkiloti, nutq apparati holati, fonematik eshitishning roli va tuzatish metodikalari muhim manbalar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Dislaliya, nutq buzilishi, fonematik eshitish, artikulyatsion apparat, logopedik tashxis, tuzatish metodikasi.

Nutq – insonning ijtimoiy hayotida aloqadorlik, fikr almashish, o'z-o'zini ifoda qilishning eng muhim vositasidir. Ammo ba'zan turli sabablarga ko'ra nutq tovushlarining to'g'ri shakllanmasligi holatlari uchraydi. Bu holatlardan biri dislaliya hisoblanadi. Dislaliya – bu eshitish, aqliy rivojlanish, markaziy asab tizimi faoliyati buzilmagan holda artikulyatsion apparatning noto'g'ri shakllanishi yoki noto'g'ri ish faoliyati tufayli nutq tovushlarining buzilishi hisoblanadi. Dislaliya sabablari: Dislaliya yuzaga kelishida ikkita asosiy sabablar guruhi mavjud: Organik sabablar (Mexanik dislaliya): Til, tish, lab, tanglayning anatomik nuqsonlari; "Bo'sh tanglay", "qisqa til osti payi", noto'g'ri tish qatori; Ortodontik buzilishlar (masalan, tishlarning qiya chiqishi). Funktsional sabablar: Bola bilan to'g'ri muloqot qilmaslik, noto'g'ri nutq namunalarini eshitishi; Pedagogik e'tiborsizlik, noto'g'ri ta'lim; Psixologik bosimlar, nutq muhitining salbiy bo'lishi. Dislaliya turlari: klassifikatsiyasiga ko'ra dislaliya quyidagilarga bo'linadi: Prostaya (yengil) dislaliya – tovushlarning almashtirilishi yoki yo'qligi. Aralash dislaliya – bir necha tovushlar noto'g'ri talaffuz qilinadi. Ijtimoiy dislaliya – nutq muhitida noto'g'ri talaffuz namunalarining o'zlashtirilishi. Dislaliyani tashxislash: Tashxis qo'yishda logopedik tekshiruv quyidagi bosqichlarda olib boriladi: Artikulyatsion

apparatni koʻzdan kechirish – til, lab, tanglay holatini aniqlash. Fonematik eshituvni aniqlash – bola tovushlarni farqlay oladimi yoki yoʻq. Nutq namunalarini oʻrganish – soʻz va gapdagi tovushlar talaffuzini tahlil qilish. Ota-ona bilan suhbat – nutq rivoji tarixi, tarbiyaviy omillarni aniqlash. Dislaliyani tuzatish metodikasi: Logopedik ish rejasiga quyidagi yoʻnalishlar kiradi: Artikulyatsion gimnastika Nutq apparatini harakatchan qilish, tovush hosil qiluvchi organlarni mustahkamlash. Fonematik eshituvni rivojlantirish mashqlari Tovushlarni eshitish, farqlash, ajratish koʻnikmalarini shakllantirish. Tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilishga oʻrgatish Notoʻgʻri aytilgan tovushlar oʻrniga toʻgʻri variantlarni oʻrgatish: Masalan: /s/ oʻrniga /sh/ aytish holatlarini tuzatish. Tovushlarni soʻz va gaplarda mustahkamlash Yangi tovushlarni soʻzlar, gaplar va matnlarda mustahkamlash. Nutqni umumiy rivojlantirish Soʻz boyligini oshirish, gap tuzishni oʻrgatish, bogʻlangan nutq ustida ishlash.

**Xulosa:** Dislaliya – bu keng tarqalgan nutq buzilishlaridan biri boʻlib, uni erta aniqlab, toʻgʻri tuzatish ishlari olib borilsa, bolalar nutqi normaga keltiriladi. Logopedik tashxis, fonematik eshituv mashqlari, artikulyatsion gimnastika va tovushlarni mustahkamlash asosida olib boriladigan metodik ishlar natijasida bolada toʻgʻri talaffuz shakllanadi. Shu bois, logopedik yondashuvda har bir bolaning individual xususiyatlari hisobga olinishi, ota-onalar va tarbiyachilar bilan hamkorlikda ishlash muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ayupova G.T. – “Logopediya asoslari”, Toshkent, 2020
2. Levina R.E. – “Obshchaya logopediya”, Moskva, 2001
3. Shaxnarovich G.S. – “Teoriya i praktika logopedii”, Moskva, 1980
4. Voronova V.V. – “Metodika logopedicheskoy raboty”, Moskva, 1995
5. Mamonova T.A. – “Zanyatiya po ispravleniyu zvukoproiznosheniya”, Moskva, 2004
6. Maxmudova D.A. – “Nutq buzilishlari va ularni bartaraf etish”, Toshkent, 2018
7. Gʻofurova Z.I. – “Logopedik metodika asoslari”, Andijon, 2021